



ANDIJON SHAHRIDAGI PREZIDENT MAKTABI 2026–2027 O‘QUV YILI UCHUN TAKLIF ETILAYOTGAN MASHG‘ULOTLAR DASTURI

-Ismatulloh Baxtiyorov Ihtiyorjon o‘gli.

Mazkur takliflar Prezident maktablari Nizomi asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, maktabning qadriyatlari va ta‘lim siyosatiga muvofiq ravishda o‘quvchilarning manfaatlari, rivojlanishi hamda kelajakdagi akademik va kasbiy salohiyatini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

1. Media va raqamli kommunikatsiyalar.

Maktabda o‘quvchilarning media savodxonligi, raqamli kommunikatsiyalar va zamonaviy axborot texnologiyalari sohasidagi bilim hamda ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida media yo‘nalishini kengaytirish rejalashtiriladi. Ushbu doirada SMM (Social Media Marketing) to‘garaklari va amaliy mashg‘ulotlarini tashkil etish, maktabning ijtimoiy tarmoq sahifalarini yuritish va rivojlantirish, shuningdek, maktab hayoti, yutuqlari va tadbirlarini sifatli yoritish imkoniyatlarini yaratish ko‘zda tutiladi.

Shu bilan birga, maktab tasarrufidagi foto va video uskunalaridan samarali foydalanish hamda iqtidorli o‘quvchilardan iborat Media jamoasini shakllantirish nazarda tutiladi. Mazkur jamoa maktab hududida yoki maktab nomidan tashkil etiladigan tadbirlar, loyihalar, sport musobaqalari, ijtimoiy tashabbuslar va boshqa faoliyatlarni professional darajada yoritish bilan shug‘ullanadi.

2. Ekologik muhitni muhofaza qilish.

Andijon viloyati jamoatchiligi bilan hamkorlikda ekologik seminarlar, plogging aksiyalari hamda tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan jamoatchilik tashabbuslarini tashkil etish rejalashtiriladi. Mazkur faoliyatlar maktabning Eko klubi bilan muvofiqlashtirilgan holda amalga oshiriladi.

Tashkil etilgan har bir tadbirning maqsadi, jarayoni va natijalari ijtimoiy tarmoqlarda muntazam yoritib boriladi. Bu orqali ekologik madaniyatni keng targ‘ib qilish, aholining atrof-

muhitni asrashga bo'lgan mas'uliyatini oshirish hamda yoshlarni ekologik tashabbuslarga jalb etish ko'zda tutiladi.

Prezident maktablari boshqa davlat ta'lim muassasalari uchun namuna va yetakchi sifatida viloyatda ekologik barqarorlikni ta'minlashga, kelajak avlodda tozalik va ekologik mas'uliyat madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu maqsadda seminarlar va plogging tadbirlarini tashkil etishda o'quvchilarning faol ishtiroki ta'minlanadi hamda ularning ekologik loyihalardagi tashabbuslari qo'llab-quvvatlanadi.

3. Model United Nations (MUN).

Maktabda xalqaro ishtirokchilarni ham jalb etgan holda MUN (Model United Nations) faoliyatini rivojlantirish, o'quvchilarda diplomatiya, muzokaralar olib borish, tanqidiy fikrlash hamda global muammolarga yechim topish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirish maqsad qilinadi. Ushbu faoliyat orqali o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirish, omma oldida erkin va ishonch bilan fikr bildirish qobiliyatini mustahkamlash ko'zda tutiladi.

Andijon Prezident maktabi MUN konferensiyasini nafaqat mahalliy, balki xalqaro miqyosda tanilgan va nufuzli loyiha sifatida rivojlantirish rejalashtiriladi. Buning uchun tadbirlarni tashkil etish va boshqarish jarayonlariga o'quvchilar faol ravishda jalb qilinadi, keng jamoatchilik e'tiborini jalb etish uchun chet ellik ustozlar ishtiroki ta'minlanadi.

MUN konferensiyalari va boshqa tegishli tadbirlarni o'tkazishda maktabning mavjud infratuzilmasi, bino va jihozlaridan samarali foydalaniladi. Tadbirlarning yuqori saviyada tashkil etilishi, xavfsizligi va tartibli o'tishini ta'minlash maqsadida mas'ul xodimlar hamda mas'ul o'quvchilar tomonidan aniq

4. Kibersport musobaqalari.

Maktabda o'quvchilarning mantiqiy fikrlash, strategik rejalashtirish, jamoada ishlashni rivojlantirish maqsadida "House"lar o'rtasida kibersport musobaqalarini tashkil etish taklif etiladi. Musobaqalar kompyuter va mobil platformalardagi jamoaviy hamda strategik yo'nalishdagi o'yinlar asosida o'tkazilishi mumkin.

Kibersport tadbirlari o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, sog'lom raqobat muhitini yaratish hamda jamoaviy hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mazkur faoliyat o'quvchilarning asosiy ta'lim jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi, aksincha, ularni ijtimoiy va ma'naviy rag'batlantirish vositasi sifatida xizmat qilishi ta'minlanadi.

Mobil qurilmalardan foydalanish kerak bolgan musobaqalar uchun o'quvchilarning qurilmalari belgilangan tartibda qabul qilinadi, ro'yxatga olinadi va faqat musobaqa davomida foydalanishga ruxsat etiladi. Musobaqa yakunlangandan so'ng qurilmalar mas'ul o'quvchi yoki xodim nazorati ostida maktab ma'muriyatiga qaytariladi. Barcha bellashuvlar maktab

tomonidan ajratilgan maxsus xonalarda, xavfsizlik va ichki tartib-qoidalar talablariga qat'iy rioya etilgan holda o'tkaziladi.

Kibersport musobaqalari maktab nizomi, odob-axloq me'yorlariga mos ravishda tashkil etiladi. O'yinlar va musobaqa formati tanlanayotganda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, tarbiyaviy ahamiyati hamda jamoaviy hamkorlikni rivojlantirish omillari inobatga olinadi.

Mazkur yo'nalishda turli o'yinlar kesimida kibersport ligalari tashkil etilishi mumkin. Bellashuvlar semestr yoki o'quv yili davomida bosqichma-bosqich o'tkazilib, jamoalar reyting tizimi asosida baholanadi. Har bir bosqich g'oliblari keyingi bosqichlarga yo'llanma olib, yil yakunida eng muvaffaqiyatli jamoalar aniqlanadi.

Shuningdek, musobaqalar cheklangan vaqt oralig'ida va oldindan tasdiqlangan jadval asosida o'tkazilib, o'quvchilarning asosiy o'quv mashg'ulotlariga xalaqit bermasligi ta'minlanadi. Mazkur tashabbusning asosiy maqsadi o'quvchilarning vaqtini o'yin bilan band qilish emas, balki ularning jamoaviy ishlash, strategik fikrlash, liderlik va sog'lom raqobat muhitidagi ishtirokini rag'batlantirishdan iboratdir.

5. Sport musobaqalari va maktab ligasi.

Maktabda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, o'quvchilarning jismoniy faolligini oshirish hamda jamoaviy hamkorlik va liderlik ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida futbol, voleybol, badminton va suzish sport turlari bo'yicha mavsumiy maktab ligalarini tashkil etish taklif etiladi.

Musobaqalar "House"lar yoki o'quvchilar jamoalari o'rtasida oldindan tasdiqlangan taqvim va reglament asosida o'tkaziladi. Bu orqali tartibsiz va norasmiy o'yinlar o'rniga rasmiy sport ligalari shakllantirilib, jamoalar o'rtasidagi bellashuvlar adolatli, xavfsiz va tizimli ravishda tashkil etilishi ta'minlanadi.

Har bir sport turi bo'yicha mavsum davomida o'yinlar o'tkazilib, natijalar reyting tizimi asosida baholanadi. Mavsum yakunida eng yuqori natijalarni qayd etgan jamoalar va sportchilar aniqlanib, maxsus sertifikatlar, esdalik sovg'alari, vaucherlar yoki ta'limiy va madaniy safarlarda ishtirok etish bo'yicha imtiyozlar bilan taqdirlanishi mumkin.

Musobaqalarning professional va adolatli tashkil etilishini ta'minlash maqsadida tajribali trenerlar, sport murabbiylari va hakamlar (refereelar) jalb etiladi. Bellashuvlar amaldagi sport qoidalari va xavfsizlik talablariga muvofiq ravishda o'tkaziladi.

Shuningdek, sport faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida boshqa ta'lim muassasalari bilan muntazam ravishda o'rtoqlik uchrashuvlari, turnirlar va sport musobaqalari tashkil etilishi rejalashtiriladi. Bunday tadbirlar o'quvchilarga turli jamoalar bilan muloqot qilish, yangi tajribalar orttirish, sog'lom raqobat muhitida ishtirok etish va sport madaniyatini rivojlantirish imkoniyatini yaratadi.

6. Jangovar san'at.

Maktabda o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligi, intizomi, ruhiy barqarorligi va o'ziga bo'lgan ishonchini rivojlantirish maqsadida jangovar san'atni qo'llab-quvvatlash taklif etiladi. Xususan, xalqaro va respublika miqyosidagi musobaqalarda, jumladan O'zbek Jang San'ati va boshqa jangovar sport turlari bo'yicha ishtirok etayotgan o'quvchilar uchun maktab hududida maxsus to'garaklar tashkil etish rejalashtiriladi.

Mazkur yo'nalish o'quvchilarning sportdagi yutuqlarini qo'llab-quvvatlash, ularning salohiyatini yuzaga chiqarish hamda sport orqali liderlik, matonat va mas'uliyat kabi muhim fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. O'quvchilarning sportdagi muvaffaqiyatlari maktab miqyosida e'tirof etilib, ularni keyingi musobaqalarga intilish uchun rag'batlantirish tizimi yo'lga qo'yiladi.

Shuningdek, jangovar san'at bilan shug'ullanuvchi o'quvchilarni boshlang'ich darajadan boshlab yuqori sport razryadlari, milliy terma jamoalar va xalqaro sport ustasi nomzodi darajasigacha bo'lgan yo'lda har tomonlama qo'llab-quvvatlash nazarda tutiladi.

Mashg'ulotlarni sifatli tashkil etish maqsadida malakali trenerlar va mutaxassislar jalb qilinadi. Barcha mashg'ulotlar o'quvchilarning yoshi, sog'lig'i va biologik rivojlanish xususiyatlari inobatga olingan holda, xavfsizlik va sport tibbiyoti talablariga muvofiq ravishda muntazam o'tkaziladi.

Yo'nalishni tizimli rivojlantirish maqsadida tegishli sport federatsiyalari va sport tashkilotlari bilan hamkorlik memorandumlarini imzolash, qo'shma loyihalar va musobaqalarni tashkil etish ko'zda tutiladi.

7. Kechki ovqat zaxirasi.

Kechki ovqat 19:00 da berilishi sababli ayrim o'quvchilarda 21:00–22:00 atrofida qo'shimcha ochlik holati yuzaga kelishi mumkin. Shu bois oshxonada o'sha kechki ovqatdan ortib qolishi ehtimol bo'lgan qismni 10–20 nafar o'quvchiga yetarli miqdorda zaxira sifatida ajratib qo'yish taklif etiladi.

Mazkur tartib o'quvchilarning kechki ehtiyojlarini qondirish va kun tartibini yanada qulaylashtirishga xizmat qiladi.

8. Maktab bufeti - savdo burchagi.

Maktab hududida mas'ul xodimlar va o'quvchilar nazorati ostida faoliyat yurituvchi rasmiy savdo burchagi (bufet) tashkil etish taklif etiladi. Ushbu bufet o'quvchilarning kundalik

ehtiyojlarini qondirish, ularga qo'shimcha oziq-ovqat mahsulotlari, o'quv qurollari va zarur kanselyariya buyumlarini qulay tarzda taqdim etish maqsadida yo'lga qo'yiladi.

Bufet orqali sog'lom yeguliklar, ichimliklar, qog'oz, daftar, ruchka va boshqa o'quv jarayonida zarur bo'ladigan mahsulotlar sotilishi mumkin. O'quvchilarning maktab hududidan tashqariga chiqishlari cheklanganligi sababli, zarur mahsulotlarni maktab ichida xarid qilish imkoniyatini yaratish ularning qulayligi va ehtiyojlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

Mazkur faoliyat amaldagi qonunchilik talablari va sanitariya-gigiyena me'yorlari asosida tashkil etilib, qat'iy nazorat ostida yuritiladi. Bufetda yarim tayyor mahsulotlar, gazli ichimliklar, energetik ichimliklar, alkogolli mahsulotlar hamda kelib chiqishi, ishlab chiqaruvchisi yoki yaroqlilik muddati noma'lum bo'lgan mahsulotlarni sotish qat'iy tanqiqlanadi. Shuningdek, barcha mahsulotlarning sifatli saqlanishi, yaroqlilik muddati va xavfsizlik talablariga muvofiqligi muntazam nazorat qilinadi.

Ushbu tashabbus o'quvchilarning maktabdagi kundalik hayotini yanada qulaylashtirish, sog'lom va xavfsiz muhitni ta'minlash hamda maktabning umumiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur bufet faoliyati nafaqat o'quvchilar, balki maktab xodimlari va pedagoglar uchun ham qulaylik yaratadi. O'qituvchilar va xodimlar kundalik ehtiyojlari uchun zarur mahsulotlarni xarid qilish maqsadida maktab hududidan tashqariga chiqishga ehtiyoj sezishmaydi. Bu esa ularning vaqtini tejash, ish jarayonining uzluksizligini ta'minlash hamda maktabda yanada qulay mehnat muhitini yaratishga xizmat qiladi.

9. Piknik.

O'quv jadvalidan tashqari, jamoaviy birlashuvga qaratilgan piknik tadbirlarini tashkil etish taklif etiladi. Ushbu tadbirlar o'quvchilarning ijtimoiy muhitini yaxshilash hamda maktab ichidagi umumiy muhitni yanada oshirishga xizmat qiladi.

Har bir sinf uchun semestr davomida bir martalik piknik belgilangan vaqt oralig'ida o'tkaziladi. Tadbirlar maktab hududida yoki oldindan tasdiqlangan tashqi dam olish maskanlarida tashkil etilishi mumkin. Piknik jarayonida o'quvchilar nafaqat tayyor maxsulot va taomlarni olib kelishi, balki belgilangan xodim yoki ustozlari bilan jamoaviy ovqat tayyorlashlari ham mumkin. Bu yondashuv o'quvchilarda jamoada ishlash, mas'uliyat va amaliy hayot ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadbirlar xavfsizlik va sanitariya qoidalariga rioya etilgan holda, tartibli va nazorat ostida o'tkazilishi ta'minlanadi.

10. Ertalabki majburiy taqdimot formatini qayta ko'rib chiqish.

Ertalabki majburiy taqdimot formatini qayta ko'rib chiqish va uni qisqa, kreativ yondashuvlar bilan boyitish taklif etiladi. Mazkur yondashuv o'quvchilarda omma oldida nutq so'zlash

ko'nikmalarini rivojlantirish va ertalabki jarayonni yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Tizim doirasida mas'ul o'quvchilar uchun turli formatlarni tanlash imkoniyati (masalan, qisqa taqdimot, muhokama, savol-javob, stand-up yoki kreativ mini-o'yinlar) joriy etilishi mumkin. Bu orqali jarayonning bir xilligi kamaytirilib, o'quvchilarga qiziqarli formatlar taklif etiladi.

Mazkur yondashuv ertalabki yuklamani ortiqcha bosimga aylantirmasdan, aksincha, o'quvchilarni faol ishtirokga jalb etish, jamoaviy ruhni rivojlantirish va kunni ijobiy kayfiyat bilan boshlashga xizmat qiladi.

11. O'quvchilar va maktab ma'muriyati ortasidagi ko'prik.

O'quvchilar va maktab ma'muriyati o'rtasida samarali va ochiq muloqot tizimini yo'lga qo'yish maktab rivoji uchun muhim omillardan biri hisoblanadi. Har bir o'quvchining fikri, taklifi va duch kelayotgan muammolari o'z vaqtida eshutilishi va imkon qadar hal etilishi maqsadga muvofiqdir.

Shu maqsadda o'quvchilar va ma'muriyat o'rtasida maxsus aloqa platformasi yoki raqamli portal (yoki bot) tashkil etish taklif etiladi. Ushbu tizim orqali o'quvchilar o'z murojaatlari, takliflari yoki muammolarini bevosita yuborish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Kelib tushgan murojaatlar mas'ul o'quvchi yoki xodimlar tomonidan ko'rib chiqilib, ularning asoslanganligi va dolzarbligiga qarab imkon qadar yechim topish choralari ko'riladi.

Mazkur tizim maktabda ochiqlik va ishonch muhitini kuchaytirish, o'quvchilarning faolligini oshirish hamda muammolarni tezkor va tizimli hal etishga xizmat qiladi.

Yuqorida keltirilgan yo'nalishlar o'quvchilarning akademik va shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, ularning imkoniyatlarini kengaytirish hamda kelajakdagi ta'lim va kasbiy yo'llariga ijobiy ta'sir ko'rsatish maqsadida ishlab chiqilgan. Mazkur tashabbuslar maktab muhitini yanada rivojlantiruvchi, ochiq va o'quvchi uchun qulay platformaga aylantirishga xizmat qiladi.

Ushbu faoliyatlarning asosiy maqsadi o'quvchilarning universitetlarga kirish jarayonlari, shaxsiy portfoliolarini boyitish, hamda amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish orqali ularning kelajakdagi akademik va professional muvaffaqiyatlarini mustahkamlashdan iborat.

Barcha ko'rsatilgan mashg'ulotlar ixtiyoriy bo'lib, o'quvchilar ularda ishtirok etish yoki etmaslikni to'liq erkin tanlash huquqiga ega. Hech bir mashg'ulot o'quvchilarga majburiy tarzda yuklanmaydi. Shu bilan birga, maktab ma'muriyati yoki yuqori boshqaruv darajasida belgilangan majburiy o'quv jarayonlari va rasmiy akademik faoliyatlar ushbu ixtiyoriy tashabbuslardan mustasno.
